

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ERTAK JANRINI ZAMONAVIY METODLAR ORQALI O'QITISH

Abduvaliyeva Nodira Alisherovna

*Farg'ona davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Ibroximjonova Zulxumor Baxtiyor qizi

*Farg'ona davlat universiteti
1-bosqich magistranti
Ibroximjonovazulxumor@gmail.com
+998909093344*

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ertak janrini zamonaviy metodlar orqali o'qitish usuli hamda ularga matn haqida tushuncha berib borilishida va fikr yuritishda katta ahamiyatga ega ekanligi to'g'risida so'z boradi. Ertak janrini o'qitish o'quvchilarda ijodkorlik, tasavvur, nutq rivoji va axloqiy sifatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutishi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash esa ushbu jarayonni yanada samarali, qiziqarli va interfaol tarzda bo'lishi yaqqol ochib berildi.*

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich sinf, ertak janri, ertak o'qitish, zamonaviy metod, xalq og'zaki, ta'lim-tarbiya, ijodiy fikrlash, milliy qadriyat, nutq va tafakkur.*

Аннотация: *В данной статье говорится о методе обучения учащихся начальных классов жанру сказки с помощью современных методов, а также о том, что она имеет большое значение в предоставлении им понимания и размышления о тексте. Очевидно, что обучение жанру сказки играет важную роль в формировании у учащихся творческих способностей, воображения, развития речи и нравственных качеств, а применение современных педагогических технологий делает этот процесс более эффективным, интересным и интерактивным.*

Ключевые слова: *Начальная школа, жанр сказки, преподавание сказок, современный метод, устное народное творчество, воспитание, творческое мышление, национальные ценности, речь и мышление.*

Abstract: *This article discusses the method of teaching the fairy tale genre to primary school students using modern methods, as well as its great importance in providing them with an understanding of the text and reflection. It has been clearly revealed that teaching the fairy tale genre plays an important role in the formation of creativity, imagination, speech development, and moral qualities in students, and the*

use of modern pedagogical technologies makes this process more effective, interesting, and interactive.

Keywords: *Primary school, fairy tale genre, teaching fairy tales, modern method, folk oral tradition, education, creative thinking, national values, speech and thinking.*

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish muhim vazifa hisoblanadi. "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son".³⁶Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ta'lim jarayoni ularning yosh va psixologik xususiyatlariga mos holda tashkil etilishi lozim. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ertak janri bolalar ongiga yaqin, sodda va qiziqarli bo'lib, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. Shu bilan birga, ertak matnlari bolalarning nutqini rivojlantirish, so'z boyligini oshirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. An'anaviy o'qitish usullari bilan bir qatorda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ertaklarni o'qitish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Bizga ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, badiiy olamini boyitish maqsadida xalq og'zaki ijodining bir qancha na'munalari bilan bosqichma bosqich tanishtirib boriladi. Bu jarayonda ertak janrining o'рни beqiyosdir. Bunda, o'quvchilar yoshiga, psixologiyasi mos holda ertak va hikoyalar tanlanadi. Ertakning qiziqarli syujeti, voqea rivojida favqulodda ajoyib holatlar bolalarni ertaklar olamiga jalb qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar esa ertaklarni o'rgatish jarayonini, uning mazmuni yanada samarali va qiziqarli qiladi.

"Ertak" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, ertak, "gapiradi" degan ma'noni anglatadi. Demak, bu atama odatda o'ylab topilgan, ya'ni xayoliy aytib berish harakati bilan bog'liq. Ertak juda qadimgi janr bo'lib, uni yozishdan oldin og'zaki an'analar orqali yetkazilgan. Xalq tomonidan yaratilgan ko'plab ertaklarda bolalarning o'ziga xos hayoti chetlab o'tilmagan. Hatto turli yoshdagi bolalar uchun juda ko'p maxsus ertaklar yaratilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, 2021-yildan boshlab Milliy o'quv dasturiga ko'ra boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan "O'qish" va "Ona tili" darslari integratsiyalashtirilib, ta'lim amaliyotiga „Ona tili va o'qish savodxonligi" darslari joriy 1-4-sinflar uchun shu nomdagi darsliklar chop qilindi. Bu darslikning asosiy maqsadi bolalarning yosh

³⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son

xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ularning og'zaki va yozma nutqi hamda tafakkurini o'stirish, shaxs sifatida shakllantira borish, ularda bilim olishga qiziqishni o'stirish, faollik kabilarni shakllantirish hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida ertak janri o'quvchilarning nutqiy tafakkuri, ma'naviy-axloqiy qarashlari ijodiy fikrlashini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega. Ertaklar orqali bolalarda yaxshilik va yomonlik, halollik, sabr-toqat adolat, mehnatsevarlik, muhabbat, do'stlik kabi tushunchalar mustahkamlanadi. Shu sababli bolalarga ertaklarni o'qitishda an'anaviy usullar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini yanada oshiradi va ko'zlangan maqsadga ijobiy va tezroq erishga yordam beradi.

Zamonaviy metodlar, jumladan, interfaol usullar, AKT vositalari, klaster, aqliy hujum, rolga kirish, insert, savol-javob zanjiri, Venn diagrammasi kabi metodlar ertak mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi. Multimedia taqdimotlari, audio va video ertaklar orqali o'quvchilarning darsga qiziqishi kuchayadi, mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Yuqoridagilar bilan bir qatorda fanlararo integratsiya qilish ya'ni tasviriy san'at, mehnat, musiqa kabi bir qancha fanlar bilan birgalikda ishlash yanada bolada darsga mavzuga qiziqish va muhabbat uyg'otadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol metodlar alohida o'rin tutadi. Aqliy hujum, klaster, insert kabi metodlar orqali o'quvchilar ertak mazmunini chuqurroq anglaydi, o'z fikrini erkin bayon etishga o'rganadi. Masalan, ertakni o'qishdan oldin qahramonlar haqida taxmin qilish yoki o'qish jarayonida muhim joylarni belgilab borish o'quvchilarning faolligini oshiradi.

Ertaklarni o'qitishda rolli o'yinlar va sahnalashtirish usullari ham samarali hisoblanadi. O'quvchilar ertak qahramonlari obraziga kirib, ularning xatti-harakatlarini ifodalaydi. Bu esa bolalarda nutq madaniyati, ijodkorlik va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, mashhur xalq ertaklarini sahnalashtirish darsni qiziqarli va esda qolarli qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham ertak janrini o'qitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Multimediali ertaklar, audio va video materiallar, slaydlar orqali berilgan darslar o'quvchilarning diqqatini jalb etadi va ertak mazmunini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar bolalarning mustaqil o'rganishiga ham imkon yaratadi. Muammoli ta'lim metodida o'quvchilarga turli savollar berish orqali ularning fikrlash doirasi kengaytiriladi. Masalan, "Agar sen ertak qahramoni o'rnida bo'lsang qanday yo'l tutarding?" kabi savollar bolalarda tanqidiy va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Shuningdek, ertakning boshqa yakunini o'ylab topish o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini oshiradi. Ijodiy topshiriqlar ham ertak janrini o'qitishda muhim o'rin egallaydi. O'quvchilarga ertak asosida rasm chizish, ertakni davom ettirib yozish yoki o'z ertagini yaratish vazifalari berilishi ularning tasavvurini boyitadi. Bunday topshiriqlar orqali bolalar o'z fikrini yozma va og'zaki shaklda ifodalashga o'rganadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda ertak janrini zamonaviy metodlar asosida o'qitish o'quvchilarning bilim saviyasini oshirish, ijodkorligini rivojlantirish va dars jarayonini qiziqarli hamda samarali tashkil etishda muhim omil hisoblanadi. Bu esa o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Xususan, ertaklarni o'qish orqali o'quvchilarda o'zaro ahillik, ilm olishga intilish, savob ish qilish tuyg'ulari tarbiyalanadi, bir-birlarini hurmat qilishga, haqqiga hiyonat qilmaslikka, hamjihat bo'lishga o'rgatiladi. Shu o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy barkamol inson ruhida tarbiyalashda maqollar ham alohida o'rin tutadi. Maqollarda o'z ifodasini topgan xalq tajribasi va xulosalarini o'quvchilar ongiga yetkazishda turli usullardan foydalanadi. Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodi asarlarini o'qitish orqali o'quvchilarda insoniy fazilatlarni shakllantirish yo'llaridan biri ular matni ustida ishlash jarayoni hisoblanadi. Bu matn ustida bajariladigan turli, reja tuzib shu asosda qayta hikoyalash, lug'at ustida ishlash, turli topshiriqlar bilan tanlab o'qish kabilar bu vazifani amalga oshirishda muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi asarlarini o'qish darslarida turli yangi pedagogik texnologiyalarga asoslanib, interfaol metodlarni qo'llash orqali ham o'quvchilarda insoniy fazilatlarni shakllantirish mumkin. Xususan, bu asarlarni o'rganish jarayonida "Klaster", "Aqliy hujum", "Ven diagrammasi", "Guruhlar bilan ishlash", "6x6x6" kabi metodlar bu o'rinda alohida ahamiyatga egadir. Ta'lim sohasidagi o'zgarishlar tufayli darsning shakli va mazmuni ta'sirchanligi, samaradorligi, baholash mezonlari ham o'zgardi. Dars samaradorligini oshirish mezonlaridan biri-darslarda interfaol usullarni qo'llashdan iborat. Bugungi kun o'qituvchisi yangilikka intiluvchan, uni to'g'ri qabul qilib o'z o'quvchisiga yuksak darajada yetkaza olish zarurdir. Darslarni yuqori darajada tashkil qilish va o'tkazish uchun avvalo o'qituvchining o'zi pedagogik jihatdan mahoratga ega bo'lishi zarur. Shundagina bunday o'qituvchi yosh avlodni har jihatdan yetuk va barkamol inson qilib tarbiyalay oladi va unda eng oliy insoniy fazilatlarga ega yosh avlod buyuk kelajagimiz egalari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S. va b. Ona tili va o'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'limning 1-sinfi uchun darslik. 1-qism.-Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.-104 b.
2. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi.- Toshkent: "O'qituvchi", 1990.
3. Matchonov S., G'ulomova X. va boshqalar. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.- Toshkent: , "Yangiyul Poligraph servise", 2008.
4. Qosimova K., Matchonov S. , G'ulomova X., Yo'ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.